

“INKLYUZIV TA’LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUV TAMOIYILLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI”

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Azimova Dilnoza Sherzodvna

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida individual yondashuv tamoyillarining mohiyati va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur‘atini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali yo‘llari yoritilgan. Amaliy kuzatuvlar asosida inklyuziv ta’limda individual yondashuvning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish, psixologik muhitni yaxshilash hamda o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishdagi ijobiy ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasidagi davlat siyosati, xorijiy tajribalar va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik metodika, psixologik qo‘llab-quvvatlash, insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, logopediya, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: В данной статье проанализированы сущность принципов индивидуального подхода в системе инклюзивного образования и их практическая значимость. Освещены эффективные способы организации образовательного процесса с учетом индивидуальных возможностей, потребностей и темпов развития каждого учащегося. На основе практических наблюдений показано положительное влияние индивидуального подхода в инклюзивном образовании на повышение мотивации учащихся, улучшение психологической среды и развитие самосознания. Также проанализированы государственная политика в области развития инклюзивного образования в Республике Узбекистан, зарубежный опыт и возможности его применения в образовательной практике.

Ключевые слова: инклюзивное образование, индивидуальный подход, дети с особыми потребностями, педагогическая методика, психологическая поддержка, гуманность, личностно-ориентированное обучение, логопедия, социальная адаптация.

Abstract: This article analyzes the essence of the principles of the individual approach in the system of inclusive education and their practical significance. It

highlights effective ways to organize the educational process taking into account the individual abilities, needs, and pace of development of each student. Based on practical observations, the positive impact of the individual approach in inclusive education on increasing student motivation, improving the psychological environment, and developing self-awareness is demonstrated. Furthermore, the state policy on the development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan, international experience, and the possibilities of its application in educational practice are analyzed.

Keywords: inclusive education, individual approach, children with special needs, pedagogical methodology, psychological support, humanism, student-centered education, speech therapy, social adaptation.

Kirish: Inklyuziv ta'limda individual yondashuv tamoyillari har bir o'quvchining imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Har bir bola o'zining bilish tezligi, qiziqishlari, psixologik holati va rivojlanish darajasi bilan boshqacha bo'ladi. Shu sababli o'qituvchidan moslashuvchan metodika, kreativ fikrlash va ijobiy psixologik muhit yaratish talab etiladi.

Individual yondashuvning asosiy tamoyillari — insonparvarlik, moslashuvchanlik, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va barqaror motivatsiya shakllantirishdan iborat.

Bunday yondashuv, ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'ta muhimdir. Masalan, eshitishida yoki ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga dars jarayonida vizual materiallar, texnik vositalar yoki qo'shimcha tushuntirishlar orqali individual yordam ko'rsatish samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarning individual o'zlashtirish sur'atini tahlil qilib, ularning o'quv uslublariga (vizual, audial, kinestetik) mos metodlardan foydalanishi kerak.

Bu yondashuv nafaqat bilimni o'zlashtirishga, balki bolaning o'ziga ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Masalan, Toshkentdagi 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktabda o'tkazilgan amaliy kuzatuvlarda shuni ko'rish mumkinki, o'qituvchi o'quvchilarga individual topshiriqlar, moslashtirilgan baholash tizimi va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshirgan.

Bu esa individual yondashuvning amaliy natijasi sifatida qaraladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *****“Inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida”gi qarorlari asosida har bir o'quv muassasida maxsus pedagog, logoped va psixolog faoliyat yuritmoqda.

Ularning hamkorligi individual yondashuvni amaliyotga to'liq joriy etishda muhim omil hisoblanadi.

Shunday qilib, individual yondashuv tamoyillarini inklyuziv ta'limda tatbiq etish – bu nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish, balki ularning shaxs sifatida o'zini anglashini, ijtimoiy moslashuvini va o'z imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi.

Inklyuziv ta'lim bu-imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengqurlari bilan birga ta'lim olishi, uyg'unlashtirish.

Hamkorlikdagi inklyuziv ta'lim, butun dunyo ham jamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Respublikamizda inklyuziv ta'lim jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo'lib kelmoqda.

Inklyuziv ta'lim-bu shunday ta'lim tarbiya jarayoniki unda jismoniy, ruhiy, aqliy muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va hududida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta'limdagi ehtiyojlar hisobga olingan holda maxsus yordam ko'zda tutilgan maktablarda o'z tengqurlari bilan ta'lim olishi demakdir.

Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvenitsiya"ni qabul qildi.

"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi.

U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmalariga "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qoidalarini ma'muriyqonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar.

"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" kompleks vako'p qirrali xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni qamrab olgan yagona konvensiyadir.

O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi.

Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin.

Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi.

Bu borada muammolar ko'p. 2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko'rsatilgan: alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

Xorijda inklyuziv ta'limni joriy qilish tajribasining tahlili ko'rsatdiki, uning rivojlanishi turli mamlakatlarda nogiron bolalarning ta'lim olish huquqlarini amalga oshirishga, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor doiralarda inklyuziyani tashkil qilish muammolarini muhokama qilishga yo'naltirilgan fuqarolik munosabatining shakllanishidan boshlangan.

N.N.Malofeyevaning fikricha, faqat shu bosqichlardan keyingina inklyuziv ta'lim g'oyalarini amaliyotga tatbiq qilishga o'tish amalga oshirildi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish jarayonida to'siqlarsiz muhitni tashkil qilish qiyinchiliklarigina: panduslar borligi, maktabning bir qavatli dizayni, umumiy foydalanish joylarini qayta jihozlash, shtatlar jadvaliga mutaxassis defektologlarni kiritishgina emas, balki "keng tarqalgan stereotiplar va noto'g'ri tushunishlar, shu jumladan, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning integratsiyaga tayyorligi yoki rad etishidan iborat" ijtimoiy xususiyatli qiyinchiliklar ham mavjud.

Shu munosabat bilan inklyuziv ta'lim g'oyalarini amaliyotga joriy qilish, birinchi navbatda, maktab jamoasi tomonidan inklyuziya qadriyatlarini tan olish, har bir bolani uning "boshlanishdagi" imkoniyatlari-

dan qat'iy nazar, rivojlanishga ehtiyojini amalga oshirish, individuallikni qo'llab-quvvatlash zarurligini tushunish bilan bog'liq ta'lim muaassasasining inklyuziv madaniyatini yaratishni nazarda tutadi.

T.But va M.Eynskouning fikrlaricha, "o'tkaziladigan islohotlar va o'zgartirishlarning asosi hisoblanadi, hamkorlikda ishlash g'oyalariga qo'shilishadigan, o'zining barcha ishtirokchilari rivojlanishini rag'batlan-

tiradigan, xavfsiz va murosali jamoani yaratishga yordam beradi, ta'lim va o'qitish siyosati va amaliyotini o'zgartiradi."

Inklyuziv madaniyat kasbiy pedagogik faoliyat jihatidan kasbiy pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va olimlar tomonidan "inklyuziv ta'lim qadriyatlari va texnologiyalarini yaratish va o'zlashtirishga yordam beruvchi, bilimlar, ko'nikmalar, ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar tizimini integratsiyalovchi, pedagogga inklyuziv ta'lim sharoitida samarali ishlash imkonini beruvchi integratsiyalashgan shaxsiy sifat" deb belgilanadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaydilarki, "inklyuziv madaniyatning rivojlanishi uchun imkoniyati cheklangan bolalarning o'zlari va ularning ota-onalari ta'lim sharoitlari va natijalari uchun mas'uliyatni o'zlariga olishda faol bo'lishlari prinsipial jihatdan muhim."

O'zbekistonda bolalar baxtiyor, jipslashgan jamoa bo'lib, kamol topishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

Xulosa:

Biz kuzatuvlar asosida shuni bildikki, inklyuziv ta'lim jarayonida individual yondashuv tamoyillarini qo'llash o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini

oshiradi, ularning o'ziga ishonchi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Har bir bola o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo'lgani sababli, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi ularning psixologik barqarorligini va ta'limga bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, mazkur yondashuvni amaliyotda keng qo'llash imkonini bermoqda. Bu jarayonda o'qituvchi, logoped, psixolog va otalar o'rtasidagi hamkorlik ham muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, individual yondashuv tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning, balki barcha o'quvchilarning shaxsiy kamolotini, ijtimoiy moslashuvini va ta'limdagi tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-son qarori.
2. “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 13-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori.
4. “Inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2018-yil 11-iyul.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.
6. “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish to'g'risida”, 2020-yil 13-oktabr.
7. Vygotskiy, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
8. Malofeyev, N. N. Inklyuzivnoe obrazovanie: razvitie teorii i praktiki. — Moskva: Prosveshchenie, 2019.
9. But, T., & Eynskou, M. Inclusion: Developing an Inclusive Culture in Schools. — London: Routledge, 2002.
10. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. — International Conference on Education, Geneva, 2021.
11. Xodjayeva, N. “Inklyuziv ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.” — Ta'lim va innovatsiya jurnali, 2022, №4.
12. Jalilova, M. “Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual metodika.” — Pedagogik izlanishlar, 2023, №2.
13. BMT Bosh Assambleyasi. “Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”, 1989-yil 20-noyabr.